ISNN:2181-1296

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

ANIQ VA TABIIY FANLAR SERIYASI

Matematika, Mexanika, Informatika
Fizika, Kimyo, Biologiya, Geografiya

№ 1/2 (137)
2023

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК **SCIENTIFIC JOURNAL**

2023-yil, 1-son (137/2) **ANIQ VA TABIY FANLAR SERIYASI**

Matematika, Mexanika, Informatika, Fizika, Kimyo, Biologiya, Geografiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent**
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

ANIQ FANLAR

SH.A.ALIMOV	- O‘zFA akademigi
S.N.LAKAYEV	- O‘zFA akademigi (SamDU)
M.M.MIRSAIDOV	- O‘zFA akademigi
A.S.SOLEEV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)
I.A.IKROMOV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)
B.X.XO‘JAYAROV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)
A.G.YAGOLA	- f.-m.f .d., professor (Moskva davlat universiteti, Rossiya)
I.I.JUMANOV	- f.-m.f .d., professor (SamDU)
X.X.XUDOYNAZAROV	- t.f.d., professor (SamDU)
ALBERTO DEL BIMBO	- Florensiya universiteti professori, Italiya
L.SABIROV	- f.-m.f .d., professor (SamDU)
A.JUMABOYEV	- f.-m.f .d., professor (SamDU)
N.N.NIZAMOV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)
O.Q.QUVONDIQOV	- f.-m.f.d., professor (SamDU)
I.A.RAXMATULLAYEV	- f.-m.f .d., professor
A.SH.YARMUXAMEDOV	- f.-m.f .n. (SamDU)
X.S.XAYDAROV	- f.-m.f .n., dotsent (SamDU)

TABIY FANLAR

M.X.ASHUROV	- O‘zFA akademigi
N.B. FERAPONTOV	- k.f .d., professor (Moskva davlat universiteti, Rossiya)
SH. M. TUGIZOV	- professor, Koliforniya universiteti, AQSh
H. I. AKBAROV	- k.f.d., professor (O'zMU)
E. A. ABDURAXMONOV	- k.f.d., professor (SamDU)
N. K. MUXAMADIYEV	- k.f.d., professor (SamDU)
L. A. BULAVIN	- Kiev milliy universiteti professori, Ukraina
X. Q. XAYDAROV	- b.f.d., professor (SamDU)
Z. I. IZZATULLAYEV	- b.f.d., professor (SamDU)
Sh. T. XOLIQULOV	- g.f.d., professor (SamDU)
S. B. ABBASOV	- g.f.d., professor (SamDU)
Q. S. YARASHEV	- g.f.d., professor (SamDU)
GUN-SIK PARK	- Seul univeriteti professori, Koreya
D.B.XURSANOV	- g.f.f.d., dotsent (SamDU)
M. S. QUZIYEV	- b.f.f.d., dotsent (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA

Б.Х.Хужаёров, А.И.Усмонов, Ф.Б.Холлиев *Анализ переноса вещества в пористой среде на основе диффузионного уравнения с много-членными дробными производными по времени*.....	2-8
Жуманов И.И., Сафаров Р.А. *Идентификации микрообъектов на основе использования текстурных и геометрических особенностей изображений*.....	9-18
Tashmatova R.V., Ruziyev I.X., Bebitova K.E. *Kimyo darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish haqida mulohazalar*.....	19-23
Жуманов И.И., Холмонов С.М. *Оптимизация прогнозирования нестационарных объектов в условиях большой параметрической неопределенности*	24-33
Safarov T.N. *Uch o'lchovli affin fazosidagi geometriyalar*.....	34-39
Хасанов Т.Г. *Интегрирование нагруженного уравнения кортевега-де фриза с источником в случае движущихся собственных значений в классе быстроубывающих функций*.....	40-50
Nazarov F.M., Eshtemirov B.Sh., Saydullayev Q.Sh. *Microscopic and macroscopic flow models of traffic management*.....	51-58
Tursunov F., Dong Qiu *Zol-gel usulida SiO_2 mikrosferik zarrachalarning sintezi*.....	59-62
Турсунов Ф.Р., Рузикулов Ф.Ф. *Регуляризация задачи коши для линейных эллиптических систем первого порядка с постоянными коэффициентами в ограниченной области*	63-69
Trobov X.T., Atavullayeva Sh.Sh., Karimov X.R., Tursunova G.X., Djurayeva R.A. *Polimer gellarda reagentsiz usulda elektrolitlar aralashmalarini ajratish*.....	70-75
Турдиев Х.Х., Болтаев А.А. *Прямая задача для системы интегро-дифференциальных уравнений в вязкоупругой анизотропной среде*.....	76-84
Begimkulova Sh.A., Mirzayev Sh.E., Hasanov R., Rajabova M., Ivanes A., Nasimov A.M. *Study of adsorption properties OF Mg^{2+} modified Li - Mn spinel*	85-89
Qurbonov Sh.B., Abdiyeva Z.A. *Viloyat ma'muriy markazlarini iqtisodiy geografik o'rganishning ba'zi bir masalalari*.....	90-96
Arziqulov E.U., Urolov Sh.Z., Z. Shaymardanov Sh., Jalolov R.R., Rustamova B.N. *Rux oksidi nanokristallari strukturasi va optik xossalariga yuqori haroratli qizdirishning ta'siri*.....	97-102
Rustamova N., Amriddinova D. *Isolation, identification and optimization of exopolysaccharide-based bioflocculant synthesis by soil bacteria bacillus atrophaeus NR-12*.....	103-109
Ishankulov T., Mannonov M., Mukarramxujayeva N. *Bir jinsli bo'lmagan polianalitik tenglama yechimini birlik doira chegarasining qismidan davom ettirish*.....	110-115
Олимов Х.К., Канокова Ш.З., Шодмонов М.З., Кахорова А.Н. *Анализ распределений поперечных импульсов заряжённых частиц в Pb+Pb Столкновениях при $(s_{nn})^{1/2}$=2.76 ТэВ*.....	116-120
Xudoyberdiyeva I.A. *Navoiy viloyatida chorvachilik tarmoqlarini hududiy tashkil etishning iqtisodiy-geografik jihatlari*	121-125
Qurbonov H., Bozorova O'. *Qayta tiklanish jarayonining kutish joylari soni cheklangan xizmat ko'rsatish sistemalari statsionar navbat uzunliklari taqsimotini o'rganishga tadbiqi*.....	126-131

UDK. 910.1. https://doi.org/10.59251/2181-1296.2023.v1.1.1856

VILOYAT MA'MURIY MARKAZLARINI IQTISODIY GEOGRAFIK O'RGANISHNING BA'ZI BIR MASALALARI

Sh.B.Qurbonov, Z.A.Abdiyeva
O'zbekiston Milliy universiteti,
Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasining ma'muriy birliklari hisoblangan viloyat markazlari – markaziy shaharlarning iqtisodiy-geografik masalalari ko'rib chiqilgan. Asosiy e'tibor shaharlarni iqtisodiy-geografik o'rganishning nazariy va uslubiy masalalariga, xususan, shaharlarning shakllanishi va rivojlanishida iqtisodiy-geografik o'rinning ahamiyati, shuningdek, aholi dinamikasi, sanoatning tarmoq va hududiy tuzilishidagi ahamiyatiga qaratilgan.

Kalit so'zlar: shahar, ma'muriy markaz, markaziy shahar, viloyat markazi, iqtisodiy-geografik o'rin, ma'muriy-hududiy birlik, shahar sanoati.

Некоторые вопросы экономико-географического исследования областных административных центров

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы экономико-географического исследования областных центров - центральных городов, которые рассматриваются как административные единицы Республики Узбекистан. Основное внимание уделяется теоретико-методологическим вопросам экономико-географического познания городов, в частности, значению экономико-географического положения в формировании и развитии городов, а также динамике населения, отраслевой и территориальной структуре промышленности.

Ключевые слова: город, административный центр, центральный город, областной центр, экономико-географическое положение, административно-территориальная единица, городская промышленность.

Some issues of economic and geographical research of regional administrative centers

Abstract. The article deals with the issues of economic and geographical research of regional centers - central cities, which are considered as administrative units of the Republic of Uzbekistan. The main attention is paid to theoretical and methodological issues of economic and geographical knowledge of cities, in particular, the importance of economic and geographical position in the formation and development of cities, as well as population dynamics, sectoral and territorial structure of industry.

Key words: city, administrative center, central city, regional center, economic and geographical position, administrative-territorial unit, urban industry.

Kirish. Mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab respublikamiz xukumati tomonidan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda katta islohatlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohatlar natijasi shahar aholi manzilgohlari, uning tarkibiy qismi bo'lgan shaharcha va shaharlarda ham o'z aksini topmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida belgilangan "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" bandining 33-maqsadida (Hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4-1,6 baravarga oshirish) 14 ta hudud bo'yicha tuman va shaharlar kesimida ishlab chiqilgan besh yillik hududiy dasturlarni amalga oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish reyting ko'rsatkichlari «qoniqarsiz» bo'lgan shahar va tumanlar bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish vazifalari belgilangan [1]. Shuningdek, mazkur maqsadda hududlarda aholining yashash sharoitini yaxshilash uchun urbanizatsiya siyosatini yanada takomillashtirish, Samarqand va Namangan shaharlarini istiqbolda «millionlik shaharlar»ga aylantirish bo'yicha choralar ko'rish, 450 ming aholiga mo'ljallangan Yangi Andijon shahrining dastlabki bir nechta mavzelarini qurib, foydalanishga topshirish, Qashqadaryo viloyatining urbanizatsiya darajasini 50 foizga etkazish, shaharlardagi aholining turmush tarzi qulayligini baholovchi «Shaharlar qulayligi» indeksini joriy etish masalalari ham dolzarb qilib belgilangan. Yuqorida

belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda respublikamiz katta va yirik shaharlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, odatda, har qanday o'zgarish, dastur, ko'rsatma, yo'l - yo'riqlarni hayotga tadbiq etish asosan yuqori ma'muriy birliklar, viloyat hokimiyati zimmasiga tushadi. Shu sababdan bunday ishlarni amalga oshirishda viloyat markazlarining roli katta.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilmasida viloyatlar yuqori toifadagi qismlardan sanalib, mamlakatning mintaqaviy siyosatini amalga oshirishda muhim ob'ekt sifatida xizmat qiladi. Viloyatlarda ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni to'liq qamrovli bo'lib, ayni vaqtda, ular boshqaruv sub'ekti ham hisoblanadi. Viloyatlar ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning xususiyatlari, transport va kommunikatsiyalarning rivojlanishi, joylardagi boshqaruv tizimining tashkiliy tuzilishini o'zida aks ettiradi[12].

Viloyat markazlari o'z nomiga mos holda, har doim ham geografik ma'noda hududning o'rta qismida joylashganligini anglatmaydi, balki viloyat markazi deganda o'zining siyosiy - boshqaruv funksiyalari: xokimiyat, sud, militsiya, soliq, prokratura, yong'in xavfsizlik xizmati, SES (sanitariya epidemologiya stansiyasi), moliya, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash boshqarmalari kabilarni o'zida mujassamlashtirgan shaharlar tushuniladi. Ushbu markazlarning funksiyalaridan yana biri ijtimoiy mazmunga ega bo'lib, u aholiga turli xil xizmatlar ko'rsatishdan iborat. Shuningdek, viloyat markazlarining, bevosita iqtisodiy funksiyasi sanoat ishlab chiqarishi hamda ba'zan qishloq xo'jaligi bilan bog'liq jarayonlarni o'zida shakllantirgan agrosanoat majmuidan tashkil topadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi. Shaharlar geografiyasi va ular bilan bog'liq urbanizatsiya jarayoni iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida birmuncha ko'p o'rganilgan ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Iqtisodiy geografiya, xususan shaharshunoslik va geourbanistika fanlarining asoschilaridan biri N.N.Baranskiy shaharlar geografiyasi fanining rivojiga katta hissa qo'shgan. Shuningdek, shaharlarning shakllanishi, ularni o'rganish metodikasi va metodologiyasi masalalari bo'yicha V.G.Davidovich, G.M.Lappo, I.I.Maergoyz, Yu.G.Saushkin, V.V.Pokshishevskiy, L.Yo.Ioffa, B.S.Xorev, Ye.N.Persik va boshqa ko'plab olimlarning xizmatlari beqiyos. Mamlakatimiz olimlaridan N.V.Smirnov, Z.M.Akramov, T.I.Raimov, E.A.Ahmedov, O.B.Ota-Mirzaev, A.S.Soliev, T.N.Mallaboev, N.Mamatqulov, Z.X.Rayimjonov, A.A.Qayumov, S.S.Zokirov, Z.T.Abdalova, H.T.Tursunov, U.S.Sultonovlarning asarlarida ham shaharlar muammosi atroflicha yoritilgan.

Mustaqillik yillarida M.M.Egamberdieva, A.M.Mavlonov, S.K.Tashtaeva, P.Qurbonovlarning ilmiy ishlarida ham shaharlar va urbanizatsiya masalalari tadqiq qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada shaharlar va geourbanistikaga oid bo'lgan qonunlar, farmon va qarorlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, "O'zbekiston Respublikasi shaharsozlik kodeksi", shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida, xususan, shaharlar geografiyasi va urbanizatsiya jarayonlarini o'rganishda yaratilgan nazariy bilimlar, shaharlar va urbanizatsiya masalalari bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy ishlanmalaridan foydalanilgan. Maqolaning uslubiy asosini kompleks yondoshuv tashkil etadi. Shuningdek, tizim-tarkib, tarixiy, statistik, matematik, hududiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Shaharshunos olim N.N.Baranskiy shaharlarni, xususan markaziy shaharlarni tizimli o'rganishga alohida e'tibor qaratgan. U shaharni doimo uning atrofi bilan birga, uning iqtisodiy geografik joylashuvini, shaharning "qovurg'asi" hisoblangan, hududni shakllantiruvchi, unga muayyan konfiguratsiya berib turuvchi transport tizimi bilan chambarchas bog'liq holda tadqiq etgan. Demak, bundan ko'rinib turibdiki, shaharlarni iqtisodiy geografik jihatdan tahlil etish ko'p qirrali muammo hisoblanadi. Shu jihatdan, shaharlarni iqtisodiy geografik jihatdan o'rganishda albatta hudud bilan, atrof joylar bilan bog'liq holda olib borilishi talab etiladi. Aynan shunday yondashuv tadqiqotning geografiyligini belgilab beradi. Agarda alohida bir shahar o'rganiladigan bo'lsa, u holda shaharning mikrogeografiyasi va atrofiga ham e'tibor beriladi. Boshqacha qilib aytganda, bu erda tizim-tarkib tamoyiliga asoslanadi. Tizimli va kompleks yondashuv xususan ma'muriy vazifalarni (funksiyalarni) bajaruvchi mamlakat va viloyatlar, milliy va mintaqaviy birliklarni bajaruvchi markaz uchun o'ta muhimdir.

Hududni o'rganishda uning geografik o'ringa katta e'tibor beriladi. Chunki, shaharning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari uning bevosita geografik o'rni bilan bog'liq. Iqtisodiy geografik o'rin turli tarixiy davrlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ba'zan ijobiy, ba'zan esa salbiy ta'sir etib kelgan va bu jihati bilan o'zining tarixiy o'zgaruvchan kategoriya ekaligini isbotlab bergan. N.N.Baranskiy bu tushunchaga, "...iqtisodiy geografik o'rin muayyan joyning xususan, tuman yoki shaharning ma'lum bir iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan va undan tashqarida mavjud bo'lgan joyga nisbatan joylashuvi deb ta'rif

beradi [3]. Bunda hududning tabiiy sharoiti yoki tarixiy jarayonlar natijasida vujudga kelganligi ahamiyatli emasligi ta'kidlanadi. Darhaqiqat, iqtisodiy geografik o'rin o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'lib, bir vaqtlar qulay geografik o'ringa ega hudud, keyinchalik noqulay bo'lishi ham mumkin.

Iqtisodiy geograf olim I.M.Maergoyz bu xususda: "Hududning nafaqat qaerda joylashgani emas, balki undan tashqarida bo'lgan hududga nisbatan qanday joylashganidadir, boshqacha qilib aytganda, o'rganilayotgan arealning undan tashqarida joylashgan ob'ektlarga nisbatan hududiy davriy munosabatlari natijasi deb baho bergan [6]. Shaharlarning yoki viloyat markazlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi ko'p jihatdan aynan ularning qulay geografik o'rni bilan izohlanadi.

Darhaqiqat, bizning fikrimizcha ham viloyat ma'muriy markazlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishda ularning geografik o'rni, tabiiy sharoiti muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, viloyat markazlarini ularning joylashgan geografik o'rni bo'yicha biroz farqlanadi. Bu borada ularning respublika poytaxtiga nisbatan joylashganligi, o'zi boshqarayotgan viloyat hududining o'rtasida o'rnashganligi hamda viloyatning chekka qismida joylashganligini e'tirof etish mumkin.

Ta'kidlash joizki, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya nuqtai nazaridan markaz iloji boricha hududning o'rtasida joylashgani ma'qul. Aksariyat hollarda iqtisodiy landshafti shakllangan, bir tekis o'zlashtirilgan hududlarda, odatda, viloyat markazi o'rta qismga mos keladi. Binobarin, hududni boshqarish, xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligi, transport infratuzilmasi kabilarda geografik o'rin etakchilik qiladi. Mamlakatimiz viloyat markazlaridan Farg'ona vodiysi viloyatlari markazlari (Andijon, Namangan va Farg'ona shaharlari), Sirdaryo viloyati markazi Guliston shahri, Toshkent viloyati markazi Nurafshon shahri, Qashqadaryo viloyati markazi Qarshi shahri va Xorazm viloyati markazi Urganch shahri geografik joylashuvi nuqtai nazaridan nisbatan o'z viloyatining o'rta qismiga mos keladi. Tabiiy sharoiti noqulay, qishloq xo'jaligi nuqtai nazaridan tekis o'zlashtirilmagan, aholi joylashuvi nihoyatda turli tuman bo'lgan hududlarda viloyat markazlari chekkada joylashgan bo'ladi. Bunga Navoiy, Buxoro shaharlarini yaqqol misol qilib ko'rsatish mumkin. Surxondaryo viloyati markazi Termiz shahri hozirgi sharoitda nafaqat iqtisodiy balki siyosiy geografik o'rnining noqulayligi bilan ajralib turadi. Shaharlar iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi ularning bajaradigan funksiyalari va katta-kichikligini ham ta'minlaydi. Shaharlarning genetik xususiyatlarini o'rganish ko'proq tarixiy yondashuvni talab qiladi.

Ta'kidlash joizki, ayrim mamlakatlarda shaharlarning bir tomonlama, ya'ni iqtisodiy yoki sof ma'muriy, siyosiy va madaniy- rivojlanishi kuzatiladi. Binobarin, zamonaviy shaharlarning o'ziga xos xususiyati ulardagi iqtisodiy va noiqtisodiy funksiyalarning uyg'unligida yaqqol namoyon bo'ladi.

N.N.Baranskiy shaharlarni iqtisodiy landshaftda muhim o'zgarishlar boshlanishining "o'sish nuqtasi" deb yozadi [4]. Bundan tashqari, shaharlar tarkibining yangi shahar, oraliq va shu kabi manzillar hisobiga doimiy ko'payib borishi kuzatiladi. Ushbu jarayonda shaharlar tarixida ierarxik ya'ni zinapoyadagi o'rinlar o'zgaradi. Chunonchi, dunyo mamlakatlari orasida eng boshlang'ich davrdan muttasil ravishda poytaxti bitta shahar bo'lib kelganlari kam uchraydi. Bu dastavval ta'kidlangan IGO' kategoriyasi bilan bog'liq [8]. G.M. Lapponing fikricha, shaharlarning xilma-xilligi favqulodda hodisa, shu bilan bir qatorda shaharlar juda aniq tipologik su'bektdir. Tipiklik va xususiylik uyg'unligi shaharlar iqtisodiy-geografik tavsifining eng muhim jihati hisoblanadi [5].

Shuningdek, shaharlarni iqtisodiy geografik jihatdan tadqiq etishda yirik olim N.N.Baranskiyning qarashlari biroz mukammalroq bo'lib, u bu fikri orqali shaharlarning mazmun-mohiyatini aniqroq yoritib beradi. N.N.Baranskiy shaharlarni o'rganishda quyidagi tartibni taklif etadi: kirish, shahar va uning atrofini tabiiy holati, shaharning tarixiy geografik ocherki, shaharning hozirgi holati, shaharning mikrogeografiyasi, shahar va uning atrofi, xulosa va boshqalar [3]. Shaharlar metodologiyasini yuqorida qayd etilgan tartibda o'rganish uning mazmun-mohiyatini to'laroq yoritib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, viloyat markazi vazifasini bajaruvchi shaharlarni o'rganishda yana quyidagilarga e'tibor qaratish zarur: hududning iqtisodiy geografik o'rni, viloyat markazining tarixiy shakllanishi va rivojlanishi, uning boshqa shahar joylar bilan aloqasi, shaharning funksional tarkibi va ishlab chiqarish salohiyati, viloyat markazining ma'muriy-boshqaruv funksiyasi, shahar atrofi xo'jaligi, planirovkasi, arxitekturasi va boshqalar.

Viloyat markazlarining salohiyati, boshqara olish qobiliyati viloyat aholisining qancha qismi markazda istiqomat qilish ko'rsatkichiga ham bog'liq. Bu borada aholining markazda yuqori darajada mujassamlashuvi yoki juda past ko'rsatkichi ham ijobiy hol emas. Ko'payib ketishi asosiy salohiyatni bitta joyda yig'ilishiga, aholi joylashuv tizimini "monotsentrik" xususiyatiga ega va, ayni vaqtda, qolgan hududlar nisbatan e'tibordan chetroq qolishiga sabab bo'ladi. Aholi sonining markazda kamchilikni tashkil etishi esa, odatda, markazning salohiyati pastligini, viloyatni boshqarish, unga har xil xizmatlarni

ko‘rsatish uchun kuchi etmasligini ham anglatadi. Shu bois, viloyat markazida istiqomat qiluvchi aholi sonining optimal darajasi bo‘lgani maqsadga muvofiq.

Ta’kidlash joizki, viloyat markazlarida aholi soni tez ko‘payishi davom etadi, chunki sanoat korxonalarining tarkib topishi, kichik biznesning rivojlana borishi, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda vujudga kelayotgan qo‘shma korxonalar ko‘payishi kabi qator omillar qishloqlar va aholi yashaydigan boshqa manzillardan ko‘plab ishchi kuchlarini jalb qilish imkonini yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi shaharsozlik kodeksida (12-modda. Aholi punktlarining turlari) keltirilgan klassifikatsiyaga muvofiq aholisi 50 ming kishigacha bo‘lgan shaharlarni kichik, 50 mingdan 100 minggacha bo‘lgan aholiga ega bo‘lgan shaharlarni o‘rta shaharlar deb yuritiladi. Aholi soni 100 mingdan 250,0 minggacha katta, 250,0 mingdan 1,0 mlngacha yirik va 1,0 mlndan ortiq aholiga ega shaharlar millioner shaharlar guruhiga kiritiladi [13]. Binobarin, respublikada o‘ziga xos yo‘nalish va aholi soniga ega 120 ta shahar mavjud bo‘lib, barcha viloyat markazlari viloyat bo‘ysinuvidagi shaharlar hisoblanadi. Shaharlarning mintaqaviy tarmog‘ida viloyat markazlari: Nurafshon, Navoiy, Samarqand, Namangan, Andijon, Farg‘ona, Buxoro, Qarshi, Urganch, Jizzax, Termiz, Guliston shaharlarining o‘ziga xos o‘rni bor. Ularning ba’zilari o‘z viloyatidagi yagona katta shahar sanalib, mintaqa shahar aholisining asosiy qismi shu erda to‘plangan.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimiz shaharlar geografiyasida, xususan viloyat markazlari orasida aholi soni bo‘yicha Namangan shahri etakchi hisoblanadi. Mazkur shaharda 1 yanvar 2022 yil holatiga ko‘ra 661,1 ming aholi istiqomat qiladi yoki boshqacha qilib yitganda viloyat aholisining 22,5 %, jami Namangan viloyati shahar aholisining 34,8 % demakdir. Keyingi o‘rinlar Samarqand (561,9 ming kishi), Andijon (458,5 ming aholi) shaharlariga mos keladi (1-rasm). Viloyat markazlarining aholiyligi bo‘yicha so‘nggi o‘rinlar Nurafshon hamda Guliston shaharlariga tegishli bo‘lib, ular aholisi 100 ming kishidan kam [15].

1-rasm

Viloyat markazlari va ulardagi aholi soni
(01.01.2022 yil holatiga)



O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Shunday qilib, viloyat ma’muriy markazlarining respublika iqtisodiyotidagi ahamiyati ulkan, sababi, birinchidan, viloyat markazlari butun viloyat xo‘jalik tuzilishini shakllantiruvchi funksiyani bajaradi. Shu o‘rinda N.N.Baranskiyning shahar-o‘ziga yaqin rayonni tortuvchi, shu bilan birga rayon uchun savdo, ishlab chiqarish, qolaversa, ma’muriy va madaniy vazifalarni bajaruvchi markaz ekanligiga doir so‘zlarini e’tiborga olish lozim.

Ma’lumki, shaharlar muammosini hal qilish butun mamlakat, iqtisodiy rayon, viloyatning yagona rivojlantirish konsepsiyasiga qaratilishi kerak. Chunki, har bir shaharda mavjud yangi qurilishlar uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni baholash talab etiladi. Iqtisodiy geograflar alohida olingan har qanday shaharni, viloyat, iqtisodiy rayonni, hatto butun mamlakat xo‘jaligining ajralmas bir qismi, N.N.Baranskiyning ta’biri bilan aytganda, “hududning yacheykasi” sifatida ko‘rib chiqadilar. Mazkur tamoyilga rioya qilmaslik va undan chekinish yangi ob’ektlarni joylashtirishda jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi va bu milliy hamda mintaqaviy iqtisodiyot rivojlanishiga zarar etkazishi mumkin.

Tahlillarga ko‘ra, shaharlar kattalashgan sari ularning muammolari ham ortib boradi, demografik jarayonlar murakkablashadi, ijtimoiy va ekologik muammolarning (aholi orasida turli xil kasalliklarning avj olishi, uy-joy masalasining ortib borishi, transport tizimining zichligi va h.k.) og‘irlashib borishi kuzatiladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, har qanday mamlakat yoki mintaqa ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishida sanoatning o‘rni katta. Sanoat ishlab chiqarishi o‘zining hududiy va ijtimoiy tashkil etish xususiyatlari jihatidan boshqa iqtisodiyot tarmoqlaridan, jumladan qishloq xo‘jaligi va transportdan keskin farq qiladi. Sanoatda ishlab chiqarishning mujassamlashuvi, ixtisoslashuvi. kooperatsiya va kombinatlashuv yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, ular, o‘z navbatida, mazkur tarmoq iqtisodiy samaradorligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, sanoatning shaharlar vujudga kelishidagi o‘rnini baholash hozirgi urbanizatsiyani harakatga keltiruvchi kuchlar tavsifi uchun muhim, sababi noishlab chiqarish sohasining tezkor o‘sishiga qaramay, urbanizatsiya industrial rivojlanishning sezilarli natijasi bo‘lib qolmoqda. Aynan sanoat kichik shaharning katta shaharga aylanishiga sababchi, G.M.Lapponing ta’biricha, “shaharning polifunksional rivojlanishiga” ko‘maklashish orqali u funksional tarkibda sterjen rolini bajaradi. Sanoat, odatda, viloyat markazi funksional tarkibining o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lgan tarmog‘idir. Uning tashqi qiyofasini, joylashuv xususiyatlarini, atrof-muhit holatini, o‘sishini tartibga solish rivojlanish istiqbollari bo‘yicha vazifalarni belgilaydi hamda funksiyalar integratsiyasini kuchaytiradi [5].

Ma’lumki, rivojlanish jarayoni ayni vaqtda tarmoqlar va hududiy tizimlar yordamida amalga oshadi. Shu bois ishlab chiqarishning rivojlanishi hamma vaqt uning joylanish, hududiy tashkil etilishi bilan birga sodir bo‘ladi, joylanish rivojlanishning makondagi aksi yoki shakli hisoblanadi [11]. Demak, bundan ko‘rinib turibdiki, shaharlarning rivojlanish jarayoni ko‘pincha sanoatdagi tarkibiy o‘zgarishlar hisobiga sodir bo‘ladi. Shuningdek, viloyat markazlari birinchi navbatda sanoat yordamida shu viloyat tarkibidagi boshqa shaharlar rivojlanishini faollashtiradi. Bunday jarayon va qonuniyatlar, odatda, mintaqalar, shuningdek, ularning markazlari sanoat ishlab chiqarishini hududiy tarkibini tahlil qilishda yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Sanoatning rivojlanish darajasi korxonalarning xilma-xilligi bilan ham belgilanadi. Andijon, Samarqand, Buxoro, Navoiy, Farg‘ona vodiysi viloyat markazlarida sanoat tarmoqlari ko‘p bo‘lgani holda, bu shaharlarda an’anaviy engil va oziq-ovqat sanoat korxonalari bilan bir qatorda og‘ir sanoat, xususan, mashinasozlik, energetika, kimyo, qurilish materiallari kabi muhim sohalar ham rivojlangan.

Viloyat markazlari sanoati rivojlanishida tarmoqlarining roli turlicha bo‘lib, bu ishlab chiqarish kuchlarining hududiy va ijtimoiy tashkil etish shakllari bilan bevosita bog‘liq. Aytish joizki, katta korxonalarning mavjudligi–bu sanoat rivojlanish darajasini tavsiflovchi yana bir xususiyatdir. Shu bilan birga, sanoat tarmoqlarining hududiy tarkibida ham o‘ziga xos xususiyatlar bor.

Jadval

Viloyat markazlari sanoat ishlab chiqarishi tarmoqlar tarkibi
(jami sanoat mahsulotiga nisbatan foizda, 2020 y.)

Viloyat markazlari-shaharlar	Yoqil-g‘i	Elektro-ener-getika	Kimyo, neft-kimyo va gaz-kimyo	Qora metallur-giya	Rangli metallur-giya	Mashinasozlik, ta’mirlash va metalni qayta ishlash	O‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz	Qurilish material-lari	Engil	Oziq-ovqat va omuxta yem	Bosh-qalar
Andijon	3,3	6,5	10,6	0,7	0,7	58,3	0,8	2,2	9,9	5,6	1,4
Namangan	3,6		3,8	1,5		17,8	2,8	3,5	46,3	20,2	4,0
Farg‘ona	0,4		80,7	0,7		7,1	0,9	3,0	4,5	2,5	0,2
Nurafshon	0,0	87,9				1,4			3,5	2,1	9,0
Guliston	4,6		11,3	9,4		10,8	1,1	6,8	28,6	24,0	3,4
Jizzax	2,3	7,3	15,4		3,3	20,7	6,4	18,7	18,6	5,0	2,3
Samarqand			5,6	1,0		45,8	2,2	5,3	23,8	14,9	1,4
Navoiy		6,7	37,0	1,5		1,6		39,2	3,9	3,5	6,8
Buxoro	5,5	12,6	3,4	4,7		13,4	1,2	11,9	27,6	16,3	3,4
Qarshi	5,4		1,3	10,5		8,0	1,3	11,6	30,2	28,3	3,4
Termiz		21,8	1,4	3,5		9,1	4,8	14,1	14,6	22,8	7,9
Urganch	3,3	9,7	5,8	1,1		24,6	1,1	6,0	17,9	24,8	5,7

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki [15], 2020 yilda Andijon shahri sanoat ishlab chiqarishida mashinasozlik, ta’mirlash va metalni qayta ishlash tarmog‘ining ulushi 58,3 % teng bo‘lgan. Keyingi o‘rinlarda kimyo, neft kimyo va gaz-kimyo 10,6 % bo‘lgan. Mazkur shaharda engil sanoat ulushi ham biroz yuqori (9,9 %). Farg‘ona shahrida sanoat tarmoqlari ichida kimyo, neft kimyo va gaz-kimyo yaqqol ustunlik qiladi, ushbu tarmoqqa jami sanoatning deyarli 81,0 % mahsuloti to‘g‘ri kelgan. Namangan shahri o‘zining an’anaviy sanoat tarmoqlari engil va oziq-ovqat va omuxta em ishlab chiqarish hamda keyingi yillarda jadal rivojlanayotgan mashinasozlik, ta’mirlash va metalni qayta ishlash tarmoqlari ustunligi bilan ajralib turadi. Toshkent viloyati markazi Nurafshon shahrida birgina sanoat tarmog‘i ya’ni elektroenergetika yaqqol ajralib turadi. Elektroenergetika tarmog‘ining jami Nurafshon

sanoatidagi xissasi 87,9 % teng. Qarshi, Guliston va Buxoro shaharlarida engil va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, Urganchda engil va oziq-ovqat bilan birga mashinasozlik, ta'mirlash va metalni qayta ishlash nisbatan katta ko‘rsatkichga ega. Samarqand shahrida mashinasozlik, ta'mirlash va metalni qayta ishlash, Navoiy shahri esa kimyo, neft kimyo va gaz-kimyo hamda qurilish materiallari ishlab chiqarishda oldinda turadi. O‘zbekistonning janubiy shahri hisoblangan Termiz shahrida esa engil sanoat, oziq-ovqat va omuxta em ishlab chiqarish, shuningdek so‘nggi yillarda elektroenergetikaning ulushi ham ortib bormoqda.

Ta'kidlash lozimki, viloyat markazlarining ta'sir doirasi va tortish radiusi bir xil emas. Masalan, Navoiy, Samarqand, Farg‘ona vodiysi viloyatlari markazlarining ta'sir doirasi shu viloyatlar hududidan tashqariga chiqib ketadi. Guliston, Jizzax, Nurafshon shaharlarining ta'sir radiusi esa faqat shu viloyatlarga tegishli, xolos.

Har bir viloyat markazi bilan viloyatdagi boshqa shaharlar o‘rtasida farqlarni qisqartirish, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tartibga solishda katta ahamiyatga ega. Mazkur muammo viloyat markazining rivojlanishini sun'iy sekinlashtirish hisobiga emas, balki tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalangan holda "ikkinchi" shaharda sanoatni intensiv rivojlantirish (ularda uncha katta bo‘lmagan korxonalar, katta zavodlarning filiallarini qurish) hisobiga, ya'ni viloyatdagi boshqa shaharlarning solishtirma ulushini oshirish orqali hal etiladi. Hozirgi bosqichda ko‘pgina viloyat markazlari ishlab chiqarishning rivojlanishi bo‘yicha viloyatdagi qolgan shaharlardan sezilarli darajada ilgarilab ketgan. Masalan, Urganch, Jizzax, Termiz, Guliston va h.k.

Respublika viloyat markazlari turlicha ixtisoslashuvga ega. Qolaversa, viloyat markazi rivojlanishini butun mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidan ajratish mumkin emas. Shu jihatdan I.M.Maergoyzning viloyat markazi «atrof hududning ko‘zgusi» degan fikrlarini eslash o‘rinli [7]. Shu nuqtai nazardan yondashganda, respublika va viloyat markazlari sanoat ishlab chiqarish ixtisoslashuvini umumiy holda tavsiflash maqsadga muvofiq.

Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatlarining ishlab chiqarishi qishloq xo‘jaligi xom ashyosi va foydali qazilmalarni o‘zlashtirishga asoslangan. Umuman olganda, viloyat tarmoqlar tarkibida birinchi o‘rinni engil sanoat egallaydi. Bundan tashqari, neft, kimyo, sement, gaz bilan bog‘liq ixtisoslashgan tarmoqlar ham mavjud. Navoiy shahri asosan og‘ir sanoatga ixtisoslashgan holda kimyo, sement, mashinasozlik, tog‘-kon, metallurgiya, qurilish materiallari sanoatining rivojlanishi bo‘yicha ayrim viloyatlardan oldinda turadi. Samarqand, Buxoro viloyatlarida gaz, kimyo, ipakchilik rivojlangan holda, sanoati rivojlanish jihatidan yuqoridagilardan biroz orqada. Xorazm viloyati va Qoraqolpog‘iston Respublikasida mineral resurslar cheklanganligi sababli ishlab chiqarish darajasi birmuncha past. Bu viloyatlarda sanoat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga asoslangan. Bu jihatdan Surxondaryo viloyati boshqa viloyatlardan ancha orqada qolgan: yalpi sanoat mahsuloti hajmining yarmidan ko‘prog‘i paxta tozalash tarmog‘i ulushi tashkil qiladi [2].

Geourbanistikada shaharlarning bajaradigan funksiyalarini o‘rganish asosiy o‘rin tutadi. N.N.Baranskiy shaharlar metodologiyasini tadqiq etishda dastlab shaharlarni, atrof muhit, qo‘shni hududlar bilan doimiy iqtisodiy-geografik aloqadorlikda joylanishi, ularning bajaradigan vazifalari, shahar atrofi xo‘jaligi, planirovkasi, arxitekturasi yaqin atrofi, mahalliy transport va boshqalar muhim o‘rin tutishini ta'kidlab o‘tgan [4].

Ta'kidlash joizki, viloyat markazlari o‘ziga xos va mos funksiyalarni qanchalik to‘liq bajarayotganligi masalasi hozirda juda muhim. Bu muammo kompleks tahlilini talab etadi, chunki ushbu shaharlarning vazifalari ularning poytaxtliligi aynan o‘z imkoniyatlarini to‘laroq ro‘yobga chiqarishda ifodalanadi.

Agar ishlab chiqarishni tashkil qilish nuqtai nazaridan qaralsa, barcha viloyat markazlari aniq va ravshan ifodalangan industrial shaharlar sifatida ko‘rinadi. Biroq, hozirgi iqtisodiy sharoitda mazkur shaharlarning an'anaviy funksiyalari (bank-moliya, kredit, sug‘urta) biroz murakkablashib bormoqda. Respublikadagi viloyat markazlari ko‘p funksiyali shaharlar tashkil etadi. Shaharlarning genetik xususiyatlarini o‘rganish tarixiy yondashuvni talab qiladi. Viloyat markazlarining genetik xususiyatiga ko‘ra uch guruhga ajratish mumkin.

- Og‘ir sanoat negizida rivojlanayotgan shaharlar: Navoiy, Qarshi, Andijon, Samarqand;
- Yengil sanoat yo‘nalishida rivojlanayotgan shaharlar: Namangan, Farg‘ona, Buxoro;
- Agrosanoat asosida taraqqiy etayotgan shaharlar: Termiz, Nurafshon, Urganch, Guliston, Jizzax;

Mazkur shaharlarda sanoat va ishlab chiqarishning rivojlanganlik darajasi, har xil shart-sharoitlar va omillarga bog‘liq. Viloyat markazlari mamlakat shaharlar geografiyasida asosiy shahar hisoblanadi.

Biroq, u faqat aholi soni yoki sanoatning rivojlanganlik darajasi kabi mezonlar bilan belgilanmaydi. Chunki, bunday shaharlarning asosiy vazifasi siyosiy markaz, ya'ni maxsus poytaxt funksiyasini bajarish, mintaqani boshqarish, uning siyosiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tashkil qilishdan iboratdir [9]. Demak, tabiiy ravishda bu shaharlarda boshqaruv funksiyasi keng rivojlangan bo'lishi talab etiladi. Bugungi kunda viloyat markazlari nafaqat ma'muriy va sanoat markazlari, balki madaniyat, oliy ta'lim, sog'liqni saqlash, ilmiy – texnik taraqqiyot, bank-moliya, kredit, sug'urta bir so'z bilan aytganda, zamonaviy ijtimoiy – maishiy infratuzim majmuining o'chog'i hamdir.

A.Solievning ta'kidlashicha, shaharlarning funksional tiplari ularning geografik mehnat taqsimotida tutgan o'rnini, umumiy shaharlar tizimidagi xususiyatini aks ettiradi. Agar mamlakat yoki mintaqada shaharlarning funksional tiplari qanchalik xilma-xil bo'lsa, demak, bu hudud yaxshi o'zlashtirilgan va rivojlangan bo'ladi [10].

Mustaqillik yillarida viloyatlar ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishiga keng imkoniyatlar berildi. Endigi sharoitda o'z mintaqalarining ijtimoiy, iqtisodiy muammolarini hal etish, investsiya muhitni yaxshilash, qo'shma korxonalar qurish uchun katta imtiyozlarga ega. O'z navbatida, viloyat markazlarining siyosiy funksiyalari ham o'zgardi, kuchaydi.

Xulosa va takliflar. Respublika hududiy mehnat taqsimotining rivojlanganligi uning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati bevosita hududiy-urbanistik tarkibga bog'liq bo'lsada, ammo uning shaharlar tizimidagi salmog'i hamon o'zgarishsiz qolmoqda. Bu borada viloyat markazlarining demogafik sig'imi "yuki" ortib borayotganligini alohida ta'kidlash joiz. Hozirgi iqtisodiy sharoitda viloyat markazlari asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha mintaqadagi ikkinchi bosqich shaharlardan ancha ilgarilab ketgan. Bundan tashqari, viloyat markazlari o'z funksiyalarni qanchalik to'liq bajarayotganligi masalasi juda muhim. Chunki, ushbu shaharlarning vazifalari ularning poytaxtliligi, boshqaruv funksiyasi aynan o'z imkoniyatlarini to'laroq ro'yobga chiqarishda ifodalanadi. Shu bois, o'rta shaharlar iqtisodiyotini rivojlantirishda viloyat markazlarining tabiiy va iqtisodiy salohiyatidan keng foydalanish, ya'ni viloyatdagi boshqa shaharlarning solishtirma ulushini oshirish, muayyan mintaqalar doirasida o'sish markazlarini aniqlash talab etiladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
2. Abdieva Z.A. Navoiy shahri ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Monografiya, T., LESSON PRESS, 2020, 157-bet.
3. Баранский Н.Н. Об экономико- географическом изучении годов // Вопросы географии, Сб.2 – М., 1946. с.19-62.
4. Баранский Н. Н. Избранные труды. Научные принципы географии. – М.: Мысл, 1980. – 239 с.
5. Лаппо Г. М. География городов. – М.: ВЛАДОС, 1997. – 480 с.
6. Маергойз И.М. К экономико-географическому изучению городов // Вопросы географии, сб. 38. – М.,1956. с. 5-26.
7. Маергойз И.М. Географическое учение о городах. –М.: Наука, 1987.-117 с.
8. Салиев А.С. География городов Средней Азии. - Т.: ТашГУ, Ч. II, 1980. – 79 с.
9. Солиев А., Қаршибоева Л. Иқтисодий географиянинг назарий ва амалий масалалари. – Т.: Зиё,1999. – 181 б.
10. Солиев А.С. Шаҳарлар географияси. Маърузалар матни. - Т.: ЎзМУ, 2000.- 38 б.
11. Солиев А.С., Аҳмедов Э.А. ва б. Минтақавий иқтисодиёт. Ўқув қўлланма – Т.: Университет, 2003. – 304 б.
12. Ўзбекистон Республикаси Конституциясини ўрганиш – Т.; 2001, б. 263.
13. Ўзбекистон Республикаси шаҳарсозлик кодекси. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 22.02.2021 й., 03/21/676/0142-сон.
14. Қурбонов Ш.Б. Ўзбекистон "марказий" шаҳарларида аҳоли турмуш сифатини баҳолаш // Замонавий географик тадқиқотларда ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ва инновацион ривожланиши, табиатдан оқилона фойдаланиш ва туризм масалалари // Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари (Нукус ш., 2021 йил 26-27 октябр). Б. 208-212.
15. www. Stat.uz